

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Abdullajonov Davronjon

Qo'qon universitetining Xalqaro turizm va iqtisodiyot
kafedrası o'qituvchisi abdavron94@gmail.com

Mamatxonova Madinabonu

Qo'qon Universiteti Turizm va Iqtisodiyot fakulteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi
mamatxonovamadinabonu60@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini rivojlantirishda xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati haqida ma'lumot beradi. Hozirgi kunda turizm, nafaqat dam olish, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlariga ta'sir ko'rsatadigan muhim soha sifatida, dunyo miqyosida iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylangan. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ko'rsatilgan strategik qarorlar va islohotlar asosida sezilarli o'zgarishlarga erishilgan. Shuningdek, maqolada, turizmni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o'rganish, masalan, Yaponiya tajribasida interaktiv turistik ilovalarni joriy etish orqali sayyohlarning tajribasini yaxshilash masalalari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, maqolada O'zbekistonning turizm sohasidagi innovatsion yondashuvlar, normativ-huquqiy islohotlar va turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi ishlanmalari tahlil qilinadi. Turizm sohasining kelajakdagi istiqbollari, 2030-yilga mo'ljallangan maqsadlar va xorijiy tajribalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mehmondo'stlik, innovatsion yondashuvlar, ekoturizm, normativ-huquqiy islohotlar, xalqaro turizm, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish: Barchamizga ma'lumki, turizm – bu odamlarning dam olish, ish, madaniy, tarixiy, tabiiy joylarni o'rganish yoki boshqa maqsadlar bilan bir joydan boshqa joyga sayohat qilishlaridir.

Shuningdek, turizm sanoati sayohat, transport, mehmonxona xizmatlari, restoranlar, dam olish va ko'ngilochar xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda, turizm dunyodagi eng yirik va tez rivojlanayotgan sanoatlardan biri sanaldi. Qolaversa, dunyoning ko'plab mamlakatlarida turizm, ma'lum bir mamlakat va uning xalqining tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini, ma'naviy va diniy qadriyatlarini bilib olish imkoniyatlarini taqdim etadigan va davlat xazinasiga daromad keltiradigan tizim sifatida rivojlanmoqda. Bundan tashqari, bu tizim turistik xizmatlarni taqdim etish bilan bir yoki boshqa tarzda bog'langan ko'plab jismoniy va yuridik shaxslarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, turizmning ham bir qancha asosiy turlari mavjud bo'lib, ular o'z ichiga insonlar qanday maqsadlarda sayohatga o'tlanishlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz:

Ichki turizm — bu turizm turi dastlabki turizm turi bo'lib, bir mamlakat fuqarolarining o'z mamlakati ichida turli maqsadlarda sayohat qilishidir.

- **Xalqaro turizm** — ushbu turizm turi ham insonlar uchun juda manfaatli va keng tarqalgan turi hisoblanadi. Bu turizm turida esa, bir mamlakat fuqarolarining boshqa mamlakatga sayohat qilishlari tushuniladi.

- **Ekoturizm** — tabiiy muhitni o'rganish, undan zavqlanish va uni asrab-avaylashga yordam beradigan va atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatadigan sayohat turi hisoblanib, tabiatni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan turizmdir.

- **Madaniy turizm** — olimlar, tarixchilar va turli davlatlarning tarixiy va madaniy yodgorliklariga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan turizmning asosiy tarmoqlaridandir. Madaniy turizm insonlar tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish uchun sayohat qilishadi.

- **Tibbiy turizm** — bu insonlar salomatliklarini tiklashlari va davolanishlari maqsadida boshqa joyga borishlarini o'z ichiga oladi

• **Ishbilarmonlik turizmi** — turli kasb egalari tomonidan tashkil etiladigan xizmat safarlari, konferensiyalar va biznes uchrashuvlari bilan bog'liq sayohatlar

Bilamizki, turizmning iqtisodiyotga ahamiyati hozirda yaxshi tan olingan. Natijada, turizm o'zgarishlari yoki siyosiy o'zgarishlar ko'rib chiqilganda, ular iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlashga qiziqish uyg'ondi. Shuningdek, u muhim daromad manbai bo'lishdan tashqari, mamlakatning nufuzini oshirishda va uning dunyo hamjamiyati ko'zidagi ahamiyatini kuchaytirishda kuchli omillardan biri ekanligi ma'lum.

Ko'rib turganingizdek, birgina turizm sohasining rivojlanishi- nafaqat davlat, balki turizm sohasi rivojlangan davlatlarning fuqarolari uchun ham keng imkoniyat va bilimlar eshigini ochadi. E'tiborlisi shundaki, har qanday mamlakatda turizmning o'sishi- o'sha mamlakatning tarixi qayta tiklanishi, yosh avlod va ko'plab chet ellik sayyohlarning har qanday tarixiy obidalar hamda qadimiy manzilgohlar haqida qator ma'lumotlarga ega bo'lishlari ham turizmning yana bir foydali jihatidir. Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, O'zbekistonda qator tarixiy hamda tabiiy boyliklarga ega bo'lgan davlatlarda ham turizmni rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, yurtimiz qadimdan sayyohlik maskani bo'lib kelgan. Ya'ni Buyuk Ipak yo'li orqali o'tgan savdo karvonlari Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarga tashrif buyurishgan.

O'rta asrlarda esa, turizm asosan diniy ziyoratlar shaklida bo'lgan. Ya'ni musulmonlarning Haj ziyoratlari va xristianlarning Quddusga 116 ziyoratlari ko'proq amalga oshirilgan.

Keyinchalik, oradan bir necha asrlar o'tgach esa, yangi davr turizmi rivojlangan. Bu vaqtda olimlar qator geografik kashfiyotlar olib borishgan, qolaversa Yevropalik zodagon yoshlar madaniy sayohatlar tashkillashgan. Buning asosiy sababi esa aynan o'sha davrda sanoat inqilobi tufayli transport vositalari rivojlanib sayohat qilish osonlashganidir.

Hozirgi XXI asrda esa mehmonxonalar va sayyohlik agentliklari paydo bo'lib, raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar turizmni ommalashib, butun dunyo bo'ylab, jumladan, O'zbekistonda ham turizmni o'sishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi fikrlarni yaqqol misoli sifatida ko'rishimiz mumkinki, turizm sanoatining jahondagi yalpi ichki mahsulot (GDP) dan o'rni so'nggi o'n yillikda sezilarli darajada oshdi. Turizm sektori ko'plab mamlakatlarda doimiy iqtisodiy o'sishga erishish uchun muhim vositaga aylanib ham ulgurgan. Turizm sektori nafaqat GDPga katta ta'sir ko'rsatadi, balki ish o'rinlari yaratishda, qashshoqlikni kamaytirishda, daromad tengligini ta'minlashda, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshirishda, qo'shimcha soliq daromadlari yaratishda va hukumatlar uchun chet el valyutasi aktivlarini ko'paytirishda ham muhimdir.

Hozirda, ko'plab mamlakatlar globalizatsiya va iqtisodiy o'sish imkoniyatlari ortib borayotgan tendentsiyasiga javoban turizmni rivojlantirish siyosatlarini qabul qilmoqda. Buni amalga oshirishda turizmni rag'batlantirish – samarali strategiyalardan biridir. Ushbu g'oya turizmning iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatuvchi turli empirik tadqiqotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Asosiy qism: Turizm butun jahon iqtisodiyotini asosiy drayverlaridan bo'lib turgan bir paytda, har bir davlat turizmni rivojlantirishi maqsadga muvofiq, albatta. Chunki, turizm dunyo miqyosida katta iqtisodiy kuch ekanligini inkor qilishning iloji yo'q. Qolaversa, turizm sanoatining o'zgarish jarayonlarini va uning mahalliy iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishini yanada chuqurroq tushunish har qaysi mamlakat uchun ham muhimdir.

Har kuni, ko'plab mutaxassislar tomonidan dunyoning eng katta sanoati deb ataydigan turizmning kengroq ahamiyati haqida yangi bayonotlar berilmoqda. Xalqaro turizm so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada o'sgan bo'lsa, texnologik yutuqlar, yashash darajasining oshishi va globalizatsiya jarayonlari mehmonlar sonining tezkor o'sishiga olib keldi. Xalqaro turizmdan olingan daromad 1950-yilda 2,1 milliard AQSH dollaridan 1998-yilda 445 milliard AQSH dollariga yetdi. Shu davrda xalqaro sayohatchilar soni 25,3 milliondan 625 milliongacha oshdi. 1999-yilda

¹¹⁶ Xristian ziyoratchilari o'z e'tiqodlarini mustahkamlash va ibodat qilish uchun tashrif buyuradigan shahar.

turizm dunyo bo'ylab 3,5 trillion AQSH dollarini tashkil etgan yalpi ichki mahsulot (GDP) va deyarli 200 million ish o'rnini yaratdi.

Shu natijalar kabi, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham turizm sohasi juda yaxshi o'sishga erishdi. Buning asosiy sababi esa muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev janoblarining turizm sohasining rivojlanishi va yangi ish o'rinlarini tashkil etish haqidagi qator chora-tadbirlarni olib borganliklaridir. Qolaversa, prezidentimiz turizm sohasiga chuqur e'tibor berish lozimligini ta'kidlab shunday deydilar: "Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadliligi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko'p ish o'rinlari yaratish imkonini beradi."¹¹⁷

O'zbekistondagi turizm sohasi rivojlanishi bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin:

2020-yildan boshlab sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ya'ni 2020-yilda koronavirus pandemiyasi tufayli mamlakatimiz turizmi eng jiddiy zarar ko'rgan sohalardan biri bo'ldi. O'zbekistonga jami 1 million 504 ming xorijiy turist tashrif buyurgan va 261 million dollari miqdorida turizm xizmati ko'rsatilgan edi.

AQSH 21-yilda esa pandemiya ta'siri davom etgan bo'lsa-da, turizm sohasini tiklash bo'yicha aniq rejalash ishlari olib borildi. 2021-yilda O'zbekistonga 1 million 700 ming nafar xorijiy sayyoh tashrifi rejalashtirildi va turizm xizmatlari eksporti 370 million dollarga yetkazilishi ko'zda tutilgan edi.¹¹⁸

2023-yilda esa, O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni 6,6 million kishiga yetdi. Bu ko'rsatkich 2017-yildagi 2,6 million turist bilan solishtirganda deyarli 2,5 barobarga oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2023-yilda turizm xizmatlari eksporti 2 milliard 143 million dollarni tashkil etdi, bu esa 2017-yildagi 531 million dollar bilan solishtirganda qariyb 4,5 barobarga o'sishni anglatadi.

Betakror tabiati va boy tarixiy merosga ega bo'lgan, O'zbekistonimizda kelgusidagi rejalar ham katta. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, 2030-yilga kelib xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilgan.

Bu chora- tadbirlarni to'liq amalga oshirish uchun turizm sohasining rivojlanishi uchun hissa qo'shayotgan barcha sohalarni ham isloh qilinish maqsad muvofiqdir. Shu sababli,

O'zbekiston Respublikasida ham 2020-yildan 2025-yilgacha turizm sohasini rivojlantirish uchun qator sohalarda islohotlar amalga oshirilgan. Quyida ushbu islohotlar va ularning natijalari bilan tanishib chiqamiz:

- ***Turizm sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish:***

2019-yil 5-yanvarda qabul qilingan PF-5611-sonli Farmon bilan 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi.

Natijada esa, 2018-yilda O'zbekistonga 5,3 million xorijiy turist tashrif buyurgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 6,7 millionga yetdi.

- ***Turizm infratuzilmasini rivojlantirish:***

2022-yilda turizm sohasida umumiy qiymati 22,1 trillion so'mlik 735 ta loyiha amalga oshirilib, qo'shimcha 23 mingga yaqin yangi ish o'rnini yaratildi.

Qishki turizmni rivojlantirish:

2020–2025-yillarga mo'ljallangan qishki turizmni rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

¹¹⁷ <https://president.uz/oz/lists/view/6095>

¹¹⁸ Mirziyoyev, Sh. (2021). Turizm sohasini rivojlantirish va iqtisodiy o'sish strategiyalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat nashriyoti.

Bu sa'y-harakatlarning smarasidan biri esa turizm sohasiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishdir. Bu orqali xizmatlar sifati oshirilmoqda. Bu esa qishki turizmning jozibadorligini yanada kuchaytiradi.¹¹⁹

- ***Turizm sohasida kadrlar tayyorlash:***

Turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi.

- ***Xavfsiz turizmni ta'minlash:***

Turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlar implementatsiya qilindi.

Bu esa, Shahrisabz shahrining tan olinishiga sabab bo'ldi. Shahrisabz shahri 2024-yil uchun Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan turizm poytaxti deb e'lon qilindi, bu esa xalqaro miqyosda O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirdi.

- ***Turizm mahsulotini targ'ib qilish:***

O'zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash choralari ko'rildi hamda 2024-yil 12-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm sohasini rivojlantirishning muhimligini ta'kidlagan holda hamda yuqoridagi shart-sharoitlar haqida 2019-yilda shunday degan fikr yuritgan edilar: "Turizm uchun bosqichma-bosqich hamma sharoitlarni yaratyapmiz, investorlarga, ishbilarmonlarga keng imkoniyatlar beryapmiz. 2019-yil turizm rivojida tub burilish yili bo'ladi."¹²⁰

O'zbekistonda 8000 dan ortiq tarixiy obidalar va YUNESKOning to'rtta Butunjahon merosi ob'yektlari o'zining boy Ipak yo'li merosini, jumladan devor bilan o'ralgan Xiva shahrini namoyish etadi. Madaniy festivallar va sahna san'ati ham madaniy turizm uchun imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonning landshaftlari cho'llardan to tog'largacha, Nurota tog'lari kabi biologik xilma-xillik nuqtalariga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Piyoda sayr qilish, qushlarni kuzatish va jamoat turizmini o'z ichiga olgan ekoturizm salohiyatga ega. Shu bilan birga, barqaror turizm uchun bir qancha to'siqlar ham aniqlandi. Infratuzilmaga keladigan bo'lsak, yirik shaharlardan tashqarida rivojlanmagan. Sayyohlik boshqaruvi salohiyati, ekskursiyadan tortib barqarorlik standartlarigacha kuchaytirishni talab qiladi. Turizm ob'ektlariga va marketingga nisbatan investitsiyalar cheklangan. Jamoatchilikni jalb qilish va turistik loyihalardan foyda olishish bir-biriga mos kelmaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilishni turizm sektoridagi jadal rivojlanayotganini hisobga olgan holda kuchaytirish kerak. Barqaror turizm bo'yicha bir qancha eko turizm maskanlariga aylangan mamlakatlarda qilingan islohotlar va ularning barqarorlikni saqlab qolish uchun amalga oshirgan strategiyalari mavjud¹²¹.

Ushbu tadqiqotimizda biz maqsadli auditoriyaning turistlar qismini ko'rib chiqamiz. Ushbu auditoriyani tanlash MICE turizmni tashkil etish jarayonida eng katta va ahamiyatli ekanligi bilan bog'liq. Tashkil etilgan tadbir sayyohlarga yoqsa, kelajakda ular takroriy sayohatlarni rejalashtirishadi, hududning mahalliy aholisi va malakali kadrlari, shuningdek, davlatdan tashqarida tashrif buyurgan joyning ijobiy imidjini tarqatuvchisi bo'ladilar. Hozirgi kunda O'zbekistonda Samarqand, Toshkent, Xiva, Buxoro va Qo'qon shaharlarida konferensiyan zallari mavjud. Bu yerdagi ko'rgazmalar shunchaki tadbir emas, balki tor ixtisoslashgan

¹¹⁹ Mirziyoyev, Sh. (2020). O'zbekistonni rivojlantirish: Yangi davrni boshlab berish. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.

¹²⁰ <https://daryo.uz/2019/01/09/shavkat-mirziyoyev-2019-yil-turizm-rivojida-tub-burilish-yili-boladi>

¹²¹ Shavkat o'g'li, S. I. (2025). BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 62(4), 353-358.

mutaxassislarining uchrashuvlari, yangi biznes sheriklarni topish, tajriba almashish va shartnomalar tuzish uchun maydondir.¹²²

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, MICE turizm yaxshi tashkil etilgan va targ'ib qilinadigan tadbirlar shahar, mintaq va mamlakatning PR-kompaniyasining asosiy elementiga aylanishi mumkin. MICE turizmni tashkil etish sohasida yetakchilar sifatida AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya tan olingan. Bugungi kunda bir necha o'nlab yo'nalishlarning iqtisodiy faoliyati tadbirlarga qaratilgan. Har yili MICE turizm infratuzilmasi muhim va yillik voqealar maqomiga ega bo'lgan yangi tadbirlar bilan to'ldiriladi. Minglab muxlislar sevimli jamoalari o'yinlarini tomosha qilish uchun dunyo bo'ylab sayohat qilishga tayyor bo'lishadi.

Xulosa: Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi eng boy madaniy merosga ega mehmondo'st xalqlardan biri bo'lgan O'zbekistonimizning madaniy turizmni o'rni va hozirgi vaqtga kelib madaniy turizmni qay darajada tashkil etilayotganini baholash va taqqoslash maqsadida xalqaro turizm bozorida yuqori reytinglarga chiqib kelayotgan qardosh Turkiya davlati misolida rivojlanish konsepsiyasi va tendensiyasi yoritilgan. Shu bilan qatorda mamlakat jahon bozori reytingida o'z o'rnini oshirishi uchun bir qancha taklif va mulohazalar berib o'tilgan. Hududning tarixiy saqlanishi bilan bir qatorda marketing sohasi bo'yicha bir qancha strategik rejalar va tavsiyalar ham mavjud.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholini turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishida, xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o'rin egallashida barcha sohalar bilan bir qatorda turizm sohasini ham o'rni salmoqlidir. Hozirda kishilar orasida turizmni keng targ'ib qilish maqsadida yurtimiz teleekranlarida O'zbekiston turizm salohiyatini, turli xil gadamjolarini, turistik maskanlarni, markazlari, yurtimizning g'aroyib, afsonaviy joylarini kecha-yu kunduz targ'ib qiluvchi, sayohatga doir turli xil ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda, turizmni rivojlantirish bo'yicha subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish vositalari ham qo'llanilmogda. Xorij davlatlardagi elchilar mamlakatimiz, milliy qadriyatlarimiz targ'ibotchilari bo'lishi, bunga chet eldagi vatandoshlarimiz ham hissa qo'shishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1) W. Gao, Y. Chen, S. Xu, O. Lyulyov, T. Pimonenko, The Role of Population Aging in High-Quality Economic Development: Mediating Role of Technological Innovation, SAGE Open, 2023, <https://doi.org/10.1177/21582440231202385>.

2) Y. Shan, Z. Ren, Does tourism development and renewable energy consumption drive high quality economic development? Resour. Pol., 80 (2023) 103270, <https://doi.org/10.1016/J.RESOURPOL.2022.103270>.

3) F.F. Adedoyin, N. Erum, F.V. Bekun, How does institutional quality moderates the impact of tourism on economic growth? Startling evidence from high earners and tourism-dependent economies, Tourism Econ. (2022), <https://doi.org/10.1177/1354816621993627>.

4) Mirziyoyev, Sh. (2020). O'zbekistonni rivojlantirish: Yangi davrni boshlab berish. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.

5) Mirziyoyev, Sh. (2021). Turizm sohasini rivojlantirish va iqtisodiy o'sish strategiyalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat nashriyoti.

6) Shavkat o'g'li, S. I. (2025). BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 62(4), 353-358.

7) Omonjon, U. (2023). MICE TURIZMI ORQALI O 'ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATINI TARG 'IB ETISH OMILLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 251-252.

8) Abdullajonov, D., & Tukhtasinov, O. (2025, February). FOREIGN TRADE AND INVESTMENTS: KEY FACTORS OF DEVELOPMENT. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC

¹²² Omonjon, U. (2023). MICE TURIZMI ORQALI O 'ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATINI TARG 'IB ETISH OMILLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 251-252.